

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

"KELISHILGAN"

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazi direktori



A. Xalilov

2025-yil 30-aprel

"TASDIQLAYMAN"

Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori



Y. Kanyazov

2025-yil 30-aprel

"SUD-BUXGALTERIYA EKSPERTIZASI"
fani bo'yicha dual ta'lim shakli asosidagi qayta tayyorlash kursining

O'QUV DASTURI

Mutaxassislik – Sud-buxgalteriya ekspertizasi

Toshkent – 2025

I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIV KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

“Sud-buxgalteriya ekspertizasi” fani bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **O‘quv dasturi** (bunda keyin matnda O‘quv dasturi deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida»gi 206-sonli, 2025-yil 19-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-son qarorlariga, 2020-yil 24-martdagи “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari sud ekspertlari (bundan keyin matnda Sud ekspertlari deb yuritiladi)ni qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbliji va oliv kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, maqsadi, vazifalari va o‘rganadigan muammolari, sud ekspertlarining qayta tayyorlashga jalg qilingan mutaxassislar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni qamrab olgan.

II. O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

“Sud-buxgalteriya ekspertizasi” fanining **maqsadi** - tinglovchilarda Sud-buxgalteriyasi ekspertizasi, uning mazmuni tergov va sud faoliyatida buxgalteriya hisobining tadbiq etilishiga doir nazariy va amaliy masalalarni tekshirish va o‘rganish, surishtirishda, tergov qilishda va sudda ko‘rish jarayonida hujjatli taftish, inventarizatsiya va sud-buxgalteriya ekspertizani o‘tkazish texnikasi, tashkil qilish va metodologiyasi ilmiy asoslarini belgilashdan iboratdir.

Shuningdek, sud ekspertlarida kasbiy bilimlarni chuqur o‘rganish va muntazam takomillashtirib borish, umumiy dunyoqarashni kengaytirish, kasbiy tezkorlikni shakllantirish (ekspertiza tadqiqotlarini darhol o‘tkazishga kirishish, nostandart ekspertiza vaziyatlariga tayyor bo‘lish va h.k.), faoliyati davomida

tashabbus ko'rsatishga va profilaktik tadbirlarni amalga oshirishga intilishni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

O'quv fanining asosiy vazifalari:

- sud ekspertlari tomonidan Sud-buxgalteriya ekspertizasining nazariy asoslarini tizimli ravishda egallashlarini ta'minlash;
- Sud-buxgalteriya ekspertizasi ob'ektlarining asosiy metodik prinsiplarini o'rgatish;
- ob'ektlarning ekspertiza tadqiqotlari metodikasini hamda ekspertning jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik faoliyatining metodlari bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Shuningdek, sud ekspertlarida jinoyatlarni ochish va tergov qilishda Sud-buxgalteriya ekspertizasining amaliy ahamiyati to'g'risidagi ishonchni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Nodavlat sud ekspertlarini qayta tayyorlashga quyiladigan talablar

Umumiy talablar:

- sud ekspertlari konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplarni va qoidalarni, qonun hujjatlari normalarini to'g'ri anglashi va qo'llashni bilishi;
- sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyatining shakllanishi;
- ilmiy – tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatining takomillashi;
- turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirishi;
- sud ekspertlarning ushbu normalarni qo'llay olish amaliyotini shakllantirish va takomillashtirishi.

Maxsus talablar:

- sud-buxgalteriya ekspertizasining asoslari va o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- sud-buxgalteriya ekspertizasining umumiy va xususiy nazariyasining asoslari;
- sud-buxgalteriya ekspertizasining tayinlash va o'tkazishdagi xatolar va ularni aniqlash hamda bartaraf etish yo'llari;
- sud-buxgalteriya ekspertizalarda tabiiy, texnik va boshqa maxsus kurslarning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari;
- sud ekspertiza muassasalarida mavjud sud-buxgalteriya ekspertizasining uslubiyoti va texnik-kriminalistik vositalarini bilishi va ulardan foydalana olishi zarur;
- sud ekspertining sud-buxgalteriya ekspertizasining o'tkazishda protsessual qonunchilik normalarini qo'llash sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash;
- sud-buxgalteriya ekspertizasining o'tkazish, natijalarini baholash va ekspert

xulosasini shakllantirish;

– sud-ekpsertlik faoliyatiga oid ish hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

**“Sud-buxgalteriya ekspertizasi” fanidan
MAVZULAR REJASI**

T/r	Mashg‘ulotlarning mavzusi	Jami o‘quv soatlari	Shu jumladan,		
			Ma’ruza	Seminar	Amaliy (laboratoriya)
1.	Sud-buxgalteriya ekspertizasining predmeti va ob’ektlari	6	2	-	4
2.	Sud-buxgalteriya ekspertizasi hal etadigan vazifalar va masalalar	32	2	-	30
3.	Sud-buxgalteriya ekspertizasi fanining metodi va umumiyl metodikasi	30	2	2	26
4.	Sud-buxgalteriya ekspertizasini tashkiliy shakllari	24	2	2	20
<i>Oraliq nazaorat</i>		<i>Test</i>			
5.	Buxgalter-ekspertning burch va huquqlari va uning ishlarini tashkil etish	24	2	2	20
6.	Sud-buxgalteriya ekspertizasini o’tkazish asoslari va tartibi	36	4	2	30
7.	Sud buxgalteriya ekspertizasini ma’lumotlari bilan ta’minlash	14	2	2	10
<i>Oraliq nazaorat</i>		<i>Test</i>			
8.	Asosiy xo‘jalik moliyaviy muomalalari bo‘yicha sud buxgalteriya ekspertizasining izlanishi	38	6	2	30
9.	Sud-buxgalteriya ekspertizasining korxona moliyaviy xo‘jalik faoliyatini takomillashtirishga ta’siri	36	4	2	30
<i>Yakuniy nazorat (test)</i>		2	-	2	-
<i>Jami</i>		242	26	16	200

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

1-Mavzu. Sud-buxgalteriya ekspertizasining predmeti va ob’ektlari

(6-soat: 2-soat ma’ruza, 4-soat amaliy mashg’ulot)

Sud-buxgalteriya ekspertizasining predmeti, uni o'tkazish zaruriyati, surishtiruv tergov yoki sud tergovi davomida buxgalteriya hisobi sohasida maxsus bilimlarning qo'llanilishi. Sud-buxgalteriya ekspertizasi ob'ektlari.

Ekspertiza va tekshiruvlarni amalga oshirish uchun asoslar. Ekspertiza va tekshiruvlar o'tkazishni tashkil qilish. Taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish.

2-Mavzu. Sud-buxgalteriya ekspertizasi hal etadigan vazifalar va masalalar

(32-soat: 2-soat ma'ruza, 30-soat amaliy mashg'ulot)

Pul mablag'lari, tovar moddiy zaxiralarining haqiqatda naqd bor-yo'qligini, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarining buzilish holatlarini aniqlash yuzasidan buxgalteriya hisobi hujjatlarini tadqiq etish. Xo'jalik operatsiyalari. Buxgalteriya hisobi operatsiyalari.

3-Mavzu. Sud-buxgalteriya ekspertizasi fanining metodi va umumiy metodikasi

(30-soat: 2-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 26-soat amaliy mashg'ulot)

Tergov organlari va sud (buxgalteriya) faoliyati tekshirilayotgan jinoiy ish bo'yicha daliliy ashyolar yordamida haqiqatni aniqlash.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi fanining metodi va umumiy metodikasi.

Buxgalteriya ekspertizasining o'rganish metodlari. Buxgalteriya hujjatlarini taqqoslash. Hujjatli tekshirish. Modellashtirish. Uslublari. Nazorat solishtirish. Muqobil (o'zaro) tekshirish. Miqdoriy qiymat hisobini tiklash. Hujjat va yozuvlarni formasi bo'yicha tekshirish. Arifmetik tekshirish. Normativ tekshirish. Yo'qotilgan hujjatlarni tiklanishini tekshirish.

4-Mavzu. Sud-buxgalteriya ekspertizasini tashkiliy shakllari

(24-soat: 2-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 20-soat amaliy mashg'ulot)

Sud-buxgalteriya ekspertizasini tashkiliy shakllari. Jinoiy ish yuzasidan yig'ilgan materiallarda buxgalterik-arif-metik hisob-kitoblar, kamomadni aniqlash, kassadagi ortiqcha va yetishmaydigan pul summasini aniqlash. Taftish xulosalarining asossizligi, taftish o'tkazishda moddiy javobgar shaxs ishtirok etmasligi, taftish yoki inventarizatsiya xulosasida komissiya imzolarining tushunarsiz yoki qalbaki yoki umuman yo'qligi.

O'tkazilgan taftish, inventarizatsiya yoki boshqa turdag'i tekshiruvlar dalolatnomalariga asoslangan holda jinoiy ish sodir qilingan davri yoki tekshiruvlarda tekshirish metodlari to'laqonligicha olib borilganligini aniqlash.

5-Mavzu. Buxgalter-ekspertning burch va huquqlari va uning ishlarini tashkil etish

(24-soat: 2-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 20-soat amaliy mashg'ulot)

Sud-buxgalteriya eksperti jinoiy ish jarayon sub'ekti. Sud ekspertining huquqlari va vazifalari (majburiyatlar). Ekspertiza predmetiga oid materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni ko'chirib olish yoki nusxa olish. Xulosa berish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va ob'ektlarning taqdim etilishini talab qilish. Vakolatlar doirasidan chiqib ketmaslik. Ekspert va mutaxassisning huquq hamda majburiyatlarini farqlash.

6-Mavzu. Sud-buxgalteriya ekspertizasini o'tkazish asoslari va tartibi

(36-soat: 4-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 30-soat amaliy mashg'ulot)

Sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash uchun zarur holatlar. Sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlanishi. Xo'jalik hisobi amaliyoti va nazariyasiga doir buxgalteriyaning maxsus bilimlarini qo'llash. O'zbekiston jinoyat protsesual qonunchiligi asosida tergov va sud muhkamasi davrida jinoiy ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan hollar. Ish holati bilan taftishni ma'lumotlari o'rtasida qarama-qarshiliklar, boshlang'ich va takroriy taftishni dalolatnomalari o'rtasida qarama-qarshiliklar, tekshirish jarayonida taftishchilar tomonidan noto'g'ri metod qo'llanilgani haqida yoki ularning yakunlarining noto'g'riliqi haqida ob'ektiv ma'lumotlar.

7-Mavzu. Sud buxgalteriya ekspertizasini ma'lumotlari bilan ta'minlash

(14-soat: 2-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 10-soat amaliy mashg'ulot)

Xo'jalik operatsiyalarini tekshirish bilan bog'liq materiallar, hisob registrlaridagi yozuvlar, hisobotlar, ayblanuvchi va guvohlarning ko'rsatmalarini boshqa sohadagi ekspertlar xulosasi.

Sud jarayonida hujjatlarga tikilgan yangi hujjatlar va sud qatnashchilarini tomonidan qilingan takliflar. Ekspertiza tayinlagan organ tomonidan taqdim etilgan materiallar.

8-Mavzu. Asosiy xo'jalik moliyaviy muomalalari bo'yicha sud buxgalteriya ekspertizasining izlanishi

(38-soat: 6-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 30-soat amaliy mashg'ulot)

Kassa va bank muomalalari bo'yicha sud buxgalteriya ekspertizasi. Tovar moddiy boyliklar yuzasidan sud buxgalteriya ekspertizasi. Savdo, umumiy ovqatlanish va moddiy-texnika ta'minotida tovar muomalasi bo'yicha sud buxgalteriya ekspertizasi. Sanoatda, qurilish va boshqa tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarish va bajarilgan ish va xizmatlar yuzasidan sud buxgalteriya ekspertizasi.

9-Mavzu. Sud-buxgalteriya ekspertizasining korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga ta'siri

(36-soat: 4-soat ma'ruza, 2-soat seminar, 30-soat amaliy mashg'ulot)

Korxona va tashkilotlarda ijtimoiy mulkni saqlash, ta'minlash va moddiy javobgarlikni tashkil etish bo'yicha sud-buxgalteriya ekspertizasining takliflari. Sud-buxgalteriya ekspertizasining takliflari va ularni bajarishni nazorat qilish.

IV. SEMINAR MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg'ulotlarida tinglovchilar o'z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko'nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo'ladi.

O'qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi tomonidan hayotiy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqeа-hodisalar bilan bog'lab borish katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida jahonda sodir bo'lgan voqeа-hodisalar bo'yicha tinglovchilarda mustaqil savollar, testlar tuza olish hamda qo'yilgan savollarga to'g'ri, aniq javob berish ko'nikmalarini rivojlantirib borish tavsiya etiladi.

V. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

O'quv dasturining nazariy qismi Institutda amaliy qismi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining "Sud-iqtisodiy ekspertizasi bo'limi" yoki Markazning viloyat bo'limlarida o'tkaziladi.

Mashg'ulotda amaliy vazifalar muhokama etiladi va sud-buxgalteriya ekspertizasi bo'yicha ekspert xulosalari mustaqil tuziladi.

VI. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lif jarayonida sud eksperti o'quv dasturida belgilangan masalalarni o'rganishi uchun tavsiya qilingan adabiyotlar sud-buxgalteriya

ekspertizasi bo'yicha ekspertlik amaliyoti bilan tanishishi hamda ekspertiza xulosalari tuzishda ishtirok etadi.

O'quv kursi bo'yicha o'quv materiallarining kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o'qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta'lif uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta'lifda fanning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rghanish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

VII. O'QUV VA ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTLARI

(O'quv rejasida bu fan uchun ko'zda tutilmagan)

VIII. LABORATORIYA VA KURS ISHLARI

Tinglovchilar sud ekspertizasining tegishli yo'nalishi bo'yicha o'zлari tanlagan mavzularda malaka ishi (referat) tayyorlaydi va himoya qiladilar.

Malaka ishining (referat) hajmi 25 varaqdan (shrift-14, interval-1,2) kam bo'lmasligi, sud-buxgalteriya ekspertiza sohasida mavjud muammoni aniqlangan va uni bartaraf qilish bo'yicha asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Malaka ishi (referat) quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

- kirish qismi (ishning mavzusi, mavzuning dolzarbligi);
- asosiy qism (mavzu bo'yicha aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini asoslash lozim bo'ladi);
- xulosalar (aniq taklif va tavsiyalar).

IX. O'QUV DASTURINI O'ZLASHTIRISH VA TA'LIM JARAYONLARINI TA'MINLASHGA MO'LJALLANGAN O'QUV VA METODIK MATERIALLAR

O'quv jarayonini tashkil etish:

O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta'lif hamda o'quv mashg'ulotlarining interfaol "aqliy hujumlar", "keys stadi", "jamoa bo'lib ishlash" hamda bilim va ko'nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O'quv materiallari:

ma'ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo'yicha o'quv qo'lanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezantatsiyalar va h.z.).

O'quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar; amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta'minoti:

shaxsiy kompyuter – o'qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi; multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

X. YAKUNIY NAZORAT

O'quv dasturining barcha mavzulari bo'yicha yakuniy nazorat test shaklida o'tkaziladi va baholanadi.

XI. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

Normativ-huquqiy xujjatlar va boshqa adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018;

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalterlik hisobi to'g'risida»gi 1996 yil 30 avgustdagi №279-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi 1998 yil 29 avgustdagи 670-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi 2010 yil 1 iyun qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2010. – 22-son. – 173-m;

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi;

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 23.10.2018 y., 03/18/503/2080-son;

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018 y., 03/18/503/2080-son;

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son;

Ostonaqulov M “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, T. «O‘qituvchi» 1993;

Xasanov B, Bobobekov B. «Buxgalteriya hisobi nazariyasi, metodik qo‘llanma». TDIU. 2000;

Xoshimov B, Xasanov B, «Buxgalteriya hisobi nazariyasi ko‘rgazmali qo‘llanmalar majmuasi», TMI-1993;

Qodirxonov S,B va boshqalar. «Buxgalteriya nazariyasi bo‘yicha masalalar to‘plami», T.D.I.U 1996;

Yuldashev S, Xoshimov B, Muhammad Salim. Osnovы buxgalterskogo ucheta, T.D.I.U. –1997;

Sotivoldiev A, Itkin Yu , «Buxgalteriya hisobi» T.:PB va AA-2002, 1 va 2-tomlar;

Karimov A. A. Islomov F. Avloqulov. A. “Buxgalteriya hisobi” Sharq nashriyoti. 2004;

A.S. Sotvoldiev , Yu.M.Itkin «Zamonaviy buxgalteriya hisobi» Toshkent 2002 y I II tom;

B.A. Xasanov «Boshqaruv hisob: nazariya va uslubiyot» Moliya nashriyoti, Toshkent, 2003 y;

Pardaev A. «Boshqaruv hisobi» Akademiya nashriyoti Toshkent 2002 y;

Djumamurodov Sh.Ya. «Reviziya po trebovaniyu sledstvennykh organov» T.: Izd. MVD Uzbekistana, 1987 g;

A.S. Sotvoldiev «Zamonaviy buxgalteriya hisobi» Toshkent 2004 y I II III tom;

Ho‘ziev I., Boqieva H.A., Muhamedova M. “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari”. T. TMI. 2004y;

Xasanov B.A., Xoshimov A. A. “Boshqaruv hisobi”. T. “Iqtisod-moliya”. 2005 y;

Ochilov I., Hurbonboev J. “Moliyaviy hisob”. T. TMI. 2004 y;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018 y., 03/18/503/2080-son;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son;

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun

hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-m. (Ushbu Farmon «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 8 fevraldagi 28 (6722)-sonida e’lon qilingan);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4049-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.12.2018 y., 07/18/4049/2268-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4125-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19 yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 5 yanvardagi “Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 5-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 14 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 321-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 15 dekabrdagi 300-sonli “Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 28 dekabrdagi 321-sonli “Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog‘lig‘ini davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 martdagи “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida” 180-son qarori.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1999 yil 19 avgust kunidagi “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

2000 yil 25 may kunidagi “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

2006 yil 14 iyun kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash milliy standartlari (MBMS № 1, 2, 3, 4);

2003 yil 09 oktabr kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-SON BHMS);
2007 yil 25 dekabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi”.

INTERNET SAYTLAR VA DAVRIY NASHRLAR:

www.bilim.uz;
<http://lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);
<http://www.tsul.uz> (Toshkent davlat yuridik universiteti).